

This is not registered version of TotalDoc Converter  
Ona quyondan bir qarama sholg'omni ko'rsatib un yo'lga o'tlanibdi.

- Onajon, men ham siz bilan borsam maylimi, sizga yordamlashaman, - debdi onasiga quyoncha.

- Yo'q, hozir emas, quyosh botayotgan mahalda borsang, men ko'pgina sholg'om yig'ib qo'ygan bo'laman. Ularni olib kelishib qo'lasan. Hozircha uyda o'tira qol, xo'pmi, bolajonim, - deya jilmayganча quyonchani yelkasini qoqib qo'yibdi ona quyon.

Onasi ketgach, quyoncha uyda qolibdi va darsini tayyorlay boshlabdi. Ancha vaqtlardan keyin, u uy vazifalarini endi tugatay deb turganda eshik ochilib, do'stlari malla mushukcha va qora uloqcha kirib kelib qolibdi.

- Quyoncha, kel birga o'ynaymiz, - deyishibdi ular.

Quyoncha rozi bo'libdi va ular berkinmashoq o'ynay boshlashibdi.

Uloqcha pichan g'arami orasiga berkinib olibdi, quyoncha uni topa olmabdi. Malla mushukcha esa daraxt ustiga chiqib, qalin barglar orasiga yashirib olibdi. Quyoncha uni ham topa olmabdi.

Quyoncha hamma joyni qidiribdi, biroq ularni hech qaerdan topa olmabdi. Qaerdasizlar, - deya qichqiribdi quyoncha. Shu payt u yer ustida turgan kattakon toshga turtilib yiqilib tushibdi. Bu holni ko'rib turgan mushukcha darhol yordamga otilibdi. Uloqcha pichan orasidan shoshib chiqib kelibdi va ular quyonchani o'rnidan asta turg'azib qo'yishibdi.

- Lat yemadngmi, - deyishibdi ular.

- Hechqisi yo'q, - debdi quyoncha.

Shu tariqa ular yana shodon kayfiyatda o'ynashda davom etibdilar. Bir mahal, quyoncha yuqoriga, ufq tomonga qarabdi va qichqirib yuboribdi:

- Voy, xudoyim, quyosh deyarli botib qolibdi-ku! Men shoshishim kerak. Onamning oldiga, dalaga borib, sholg'om olib kelishda onamlarga yordam berishim kerak! Men hozir ketaman. Onamning oldilariga borish vaqti bo'libdi. Sizlar ham uyga boringlar, - debdi do'stlariga.

Lekin malla mushukcha va qora uloqcha uning gapiga rozi bo'lishmabdi:

- Yo'q, biz uyga ketmaymiz. Aksincha dalaga borib onangga yordamlashamiz.

Shunday qilib ular dalaga yo'l olishibdi. Dalaga kelib qarasarlar, ona olmaxon allaqachon ishini tugatib quyonchani kutib o'tirgan ekan. Yordamchilarni ko'rib xursand bo'lib ketibdi va shunday debdi:

- Salom, bolajonlar. Sizlarning kelganlaringdan boshim ko'kka yetdi.

- Quyon xola, sizga yordam bergani keldik, deyishibdi quyonchani do'stlari.

Quyoncha, malla mushukcha va qora uloqcha Ona quyonning qo'lidagi sholg'omli savatlarni ko'tarishda yordamlashib yuborishibdi. Ular ikkita tayoqchni olishibdi-da, savat dastasidan o'tkazibdilar. Savatchalardan birini ona quyon bilan quyoncha, ikkinchisini esa mushukcha bilan uloqcha ko'tarib olibdilar. Shu tariqa ular baqirib qo'shiq kuylaganlaricha orqaga, uylari tomon yo'l olishibdi.

Uyga yetib kelishgach, ona quyon ularga yana bir bor minnatdorchilik bildiribdi:

- Sizlarga katta rahmat, aziz bolajonlarim.

- Arzimaydi, - deyishibdi quyonchani do'stlari.

- Kelinglar, sizlarga yeyish uchun ajoyoyib bir narsa pishirib beraman, debdi ona quyon.

Ular hammalari ona quyonga ovqat qilishda yordamlashibdilar.

Quyoncha chelakda suv olib kelibdi. Uloqcha o'choqqa olov yoqibdi. Mushukcha bo'lsa qozonni yuvibdi. Ovqat pishgach

hammalari maza qilib tamaddi qilishibdi

Tamaddi qilib bo'lishgach, quyoncha idishlarni yuvishga olib boribdi. Mushukcha esa ularni tozalab yuvibdi. Uloqcha stolni tozalabdi.

- Taq! Taq! Taq! to'satdan eshik taqillabdi. Eshikni ochib qarasarlar ona mushuk bilan ona echki bolalarini qidirib kelishgan ekan.

Quyoncha ularni ota-onalariga rosa maqtabdi.

Shunday qilib ona quyon bilan quyoncha ularni ostonada qo'l silkib kuzatib qo'yishibdi.

- Ertaga ko'rishguncha xayr! Yaxshi dam olinglar!